

**ZAMONAVIY INGLIZ ADABIYOTIDA ISLOMIY RAMZLAR TAHLILI****M.R.Kilicheva**

BuxDU, Ingliz adabiyotshunosligi
va tarjimashunoslik kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Adabiyot madaniyatlar o'rtasidagi muloqotning eng muhim vositalaridan biridir. Adabiy asarlarda turli madaniyat va dinlarning turli unsurlari va belgilarining tasviri o'quvchilarni yangi nuqtai nazarlar bilan tanishish imkoniyatini yaratadi va diniy g'oyalarni yaxshiroq anglashga yordam beradi. Islom kontekstida diniy timsollar G'arb adabiyotida, ayniqsa, zamonaviy asarlarda tobora ko'proq namoyon bo'lib, yozuvchilarning muhim badiiy texnikasiga aylanib bormoqda.

Ramz chuqur ma'no yoki mohiyatga ega badiiy tushunchadir. Islomning diniy ramzlari Qur'on, Hadis va islom amaliyotlaridan kelib chiqqan bo'lib, ular ma'naviy va axloqiy tamoyillar sifatida qaraladi. Bu atamalar ko'pincha ma'naviyat, fidoyilik, poklik, sabr-toqat va e'tiqod bilan bog'liq. Masalan, “nur” belgisi Qur'ondagi ilohiy yo'l-yo'riqni bildirsa, zulmat esa majoziy ma'noda gunoh va jaholat ramzi sifatida tasvirlangan. Bundan tashqari, masjid, oy va yulduzlar, Qur'on va diniy urf-odatlar (namoz, zikr) islom e'tiqodining asosiy belgilaridir. Diniy ramzlar nafaqat dinning mazmuni, balki jamiyat va shaxs o'rtasidagi bog'lovchi vazifasini ham bajarishi mumkin. Bu ularning universalligini ko'rsatadi, chunki ular turli mamlakatlar va madaniyatlarda tan olinadi. Shuning uchun ham G'arb adabiyotida islom ramzlari keng qo'llaniladi.

G'arb adabiyotida islom yoki musulmon diniy ramzlarning mavjudligi turli shakllarda uchraydi. Ba'zi mualliflar madaniy ziddiyatlarni ko'rsatish uchun ramzlardan



foydalansalar, boshqalari, aksincha, bu ramzlardan tinchlik, bag'rikenglik va ma'naviyatni targ'ib qilish uchun foydalanadilar.

Leyla Abulela o'z asarlariga islom diniy ramzlarini mohirona kiritgan zamonaviy ingliz yozuvchilaridan biridir. Uning roman va qissalarida diniy timsollar nafaqat qahramonlarning ma'naviy sayohatlariga yo'l ko'rsatibgina qolmay, balki global miqyosdagi to'qnashuvlar va birlikni ham aks ettiradi. Ko'pincha Abulela ijodi ma'naviyat, islomiy qadriyatlar va o'zlikni izlashga qaratilgan, shuning uchun uning asarlaridagi ramzlar ushbu mavzular nuqtai nazaridan chuqurroq namoyon bo'ladi.

Abulelaning asarlarida islomiy ramzlar qahramonlarning ruhiy rivojlanishi va ichki dunyosini ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, uning “Minaret” romanida masjid ramzi Najvaning ruhiy tiklanishi va o'zini anglashida markaziy ahamiyatga ega. Masjid, Najvaning hayotida ma'naviy boshpanaga aylanishi orqali, uning ichki tinchlikka erishishidagi jarayonini tasvirlaydi. Abulelaning ko'plab asarlarida Qur'ondagi “nur” va “zulmat” ramzlari asosiy badiiy vositalar sifatida mavjud. “Nur” ilohiy hidoyat va umid ramzi sifatida namoyon bo'ladi, “zulmat” esa gumrohlik va jaholatni ifodalaydi. “Minaret” romanida Najva hayotining qiyinchiliklariga duch kelganda zulmatga botadi, lekin masjid va ibodat orqali ilohiy nurni kashf etadi. Bu ramzlar qahramonning ma'naviy o'zgarishi va ruhiy mukammallikka intilish jarayonini ochib beradi. Adabiyotda “nur” va “zulmat” ramzlari ma'naviy izlanishlar, ichki ziddiyatlar va inson ruhiyatidagi qarama-qarshiliklarni ko'rsatish uchun asosiy badiiy vositalardan biri hisoblanadi. Bu ramzlar Qur'oniylarida keng qo'llanilgan bo'lib, Leila Abulelaning asarlarida o'ziga xos badiiy ahamiyatga ega. Yozuvchi bu ramzlar yordamida qahramonlarning ichki ruhiy ziddiyatlarini, ilohiy hidoyatga intilishlarini va ichki poklanish yoritadi.

“Nur” ramzi islomiy talqinlarda ilohiy hidoyat, haqiqat, ma'rifat va ruhiy erkinlikni bildiradi. Qur'onda “nur” odatda Ollohning yo'lboshchiligi va haqiqatni anglash manbai sifatida tasvirlanadi: “Alloh osmonlar va yerning nuri” (Nur surasi, 35-oyat). Abulelaning asarlarida “nur” ramzi qahramonlar ma'naviy hayotidagi pozitiv o'zgarishlarni ifodalaydi. Najvaning hayotida “nur” ibodat va poklanish orqali anglandi. U masjidga borib, ibodat



qilgan sari, hayotdagi murakkabliklardan xalos bo'lib, ma'naviy xotirjamlik topadi. Bu nur ichki ruhiy o'zgarishning tashqi ifodasi sifatida tasvirlanadi.

“Zulmat” ramzi esa insonning ruhiy tanazzul holatini, haqiqatdan uzoqlashganini, gumrohlik va ma'naviy bo'shliqni bildiradi. Zulmat Qur'onda jaholat va iymondan uzoqlik sifatida tasvirlangan: “Alloh iymon keltirganlarni zulmatlardan nurlarga olib chiqadi” (Baqara surasi, 257-oyat). Abulelaning romanlarida zulmat ramzi qahramonlarning ma'naviy yo'qotishlarini va hayotlaridagi murakkab damlarni ifodalaydi. Najva boy oilaning vakili bo'lsa-da, sudxo'rlik va korrupsiyaga aloqador bo'lgan otasi tufayli ruhiy inqirozga duchor bo'ladi. Uning ichki ziddiyatlari va vijdon azobi zulmat ramzi orqali ifodalanadi. Najva oxir-oqibat, bu zulmatdan chiqish yo'lini faqat ibodat va ilohiy hidoyatda topadi. Roman boshida Najva o'z hayotining og'ir davrlarini boshdan kechirishini ko'ramiz. Uning ruhiy tanazzuli oilasining boylik va ijtimoiy mavqe tufayli axloqiy qadriyatlarni yo'qotishida namoyon bo'ladi. Zulmat ramzi uning gumrohlik va ma'naviy qashshoqlik davrini aks ettiradi: *“I was alone in the darkness, without the stars or moon to guide me. My life had fallen apart, and I wandered through the days as though wrapped in a thick fog.”*¹ Bu tasvir Najvaning ichki azobini va o'z yo'lini yo'qotganini ko'rsatadi. “Qalin tuman” va “zulmat” tasviri uning hayotidagi ma'naviy tanazzulni belgilaydi. Ushbu parchada qahramon haqiqatdan uzoqlashganini his qiladi, bu esa zulmat ramzining ahamiyatini yanada oshiradi.

Najva masjidga qatnay boshlagach, uning hayoti ijobiy tomonga o'zgaradi. Masjid va ibodat Najvaning ma'naviy uyg'onishi uchun ilohiy nur manbai bo'ladi. Bu jarayon qahramonning ruhiy konfliktidan chiqib, ma'naviy erkinlikka erishishini ko'rsatadi: *“Inside the mosque, I felt the weight lifting. The light streaming through the stained glass windows was unlike any light I had seen before. It wasn't just brightness; it was a warmth that seeped into my soul.”* Bu parcha Najvaning masjidni “nur” manbai sifatida his

¹ Aboulela, Leila. (2005). Minaret. London: Bloomsbury.



qilganini ochib beradi. “Yuragiga o‘tgan ilqlik” ramzi Najvaning ruhiy poklanishini va hayotga bo‘lgan qarashlarining o‘zgarishini ifodalaydi.

Roman davomida Najva o‘zida zulmat va nurning o‘zaro kurashini his qiladi. Zulmat uning avvalgi hayotini, boylik va shon-shuhratga bo‘lgan qiziqishini anglatadi, nur esa ibodat va ma’naviy uyg‘onishni ifodalaydi: *“I stood at the threshold, torn between the shadows of my past and the light that beckoned me forward. The shadows whispered of comfort and familiarity, but the light promised freedom and peace.”*² Bu parcha Najvaning ichki konfliktini ajoyib tarzda tasvirlaydi. O‘tmishning “soylari” (zulmat) va kelajakning “nuri” o‘rtasidagi qarama-qarshilik uning ruhiy tanlovlarini ifodalaydi.

Roman yakunida Najva zulmatdan chiqib, to‘liq nur bilan yoritilgan hayotga o‘tadi. Bu o‘zgarish uning ma’naviy yetuklikka erishganini ko‘rsatadi: *“As I bowed in prayer, I felt the light envelop me completely. It was as if I had been cleansed, lifted from the depths of despair and set on a path of clarity and purpose.”*³ Bu parcha Najvaning oxir-oqibat ruhiy konfliktidan chiqib, tinchlik va ma’naviy uyg‘onishga erishganini ko‘rsatadi. “Yorug‘likka burkanish” ramzi uning ruhiy tiklanishini va hayotida yangi bosqich boshlanishini bildiradi.

Qahramonlar hayotidagi konfliktlar ikki asosiy bosqichda ko‘rsatiladi:

1. Zulmat ichida qolish: Qahramonlarning ichki azob-uqubatlari, gunohlari va xatolari zulmat bilan ifodalanadi. Najvaning oilasining boylikka intilishi va axloqiy qadriyatlardan chetlashishi uni ruhiy tanazzulga olib keladi. Bu paytda Najva hayotining mohiyatini anglay olmaydi va o‘zini yo‘qotgan kabi his qiladi.

2. Nur sari intilish va hidoyat: Zulmatdan chiqish uchun qahramonlar ilohiy nurga intilishadi. Najva ibodat orqali ichki tinchlikka erishadi, masjid esa uning uchun nur va

² Aboulela, Leila. (2005). Minaret. London: Bloomsbury.

³ Aboulela, Leila. (2005). Minaret. London: Bloomsbury.



ma'naviy tiklanish manbaiga aylanadi. Bu jarayon hidoyatga erishish va ichki poklanish ramzi sifatida ko'rsatiladi.

Islomiy diniy ramzlarning g'arb adabiyotida ko'rinishi badiiy vosita sifatida emas, balki madaniyatlararo muloqotning muhim elementi sifatida ham ahamiyatga ega. Ular Sharq va G'arb o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi, o'quvchilarni boshqa madaniyatlar va dinlar bilan tanishtiradi. Bu ramzlar orqali g'arb yozuvchilari diniy bag'rikenglik va bir-birini tushunishning ahamiyatini ta'kidlaydilar. Leila Abulelaning ijodida islomiy ramzlar inson ma'naviyatining chuqur qatlamlarini ochib beruvchi badiiy vosita sifatida o'z ifodasini topadi. Masjid, zulmat va nur kabi ramzlar qahramonlarning o'zligini anglash, ma'naviy mukammallikka intilish va dunyoqarashlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Abulela bu ramzlar orqali diniy qadriyatlarning go'zalligi va kuchini, shuningdek, ularning zamonaviy dunyodagi o'rni va ahamiyatini yoritadi. Uning ijodi orqali islomiy ramzlar g'arb o'quvchisi uchun qiziqarli bo'lib qolmay, balki islom dinining umuminsoniy qadriyatlarini anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abbas, Sadia (2011). "Leila Aboulela, Religion, and the Challenge of the Novel". *Contemporary Literature*. 52 (3): 430–61. [doi:10.1353/cli.2011.0034](https://doi.org/10.1353/cli.2011.0034). [JSTOR 41472503](https://www.jstor.org/stable/41472503).
2. Aboulela, Leila. (2005). *Minaret*. London: Bloomsbury.
3. Turner, Victor. (1967). *Forest of Symbols: Aspects of Ndembu ritual*. Ithaca, N.Y: Cornell University Press.
4. Turner, Victor. (1974). *Metaphors of Anti-Structure in Religious Culture*. V. Turner (Ed.). *Changing Perspective in the Scientific Study of Religion* (pp. 63-84). New York, NY: John Wiley and Sons.